

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI

**MADANIYAT VA SAN’ATNI RIVOJLANTIRISHNI QO‘LLAB-QUVVATLASH  
TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA**

Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish, xorijiy davlatlar va tashkilotlar bilan madaniyat va san’at sohasida aloqalarni mustahkamlash, jamg‘armaga ajratilgan mablag‘lardan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlash maqsadida:

1. Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi amaldagi moliyalashtirish tartibi va shtatlar soni saqlangan holda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) etib qayta tashkil qilinsin.

Jamg‘arma Vazirlar Mahkamasining Turizm, sport, madaniyat va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari kotibiyati tarkibiga kiritilsin.

2. Quyidagilar Jamg‘armaning asosiy vazifalari etib belgilansin:

moliyaviy, tashkiliy va ijodiy yo‘nalishlarda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga ko‘maklashish, shuningdek, madaniyat arboblari hamda tasviriy san’at, adabiyot, teatr, musiqa va xoreografiya sohasida ularning tashabbusi bilan tashkil etiladigan tadbirlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

xalqaro va davlatlararo madaniy aloqalarni kengaytirish, madaniyat va san’at sohasida xalqaro madaniy tashkilotlar va xayriya jamg‘armalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy sarmoya va grantlarni jalb etish, mamlakatimizda madaniyat va san’atga doir homiylikni rivojlantirishga ko‘maklashish;

madaniyatlararo ijodiy muloqotni yo‘lga qo‘yish va o‘zbek san’atining jahon badiiy va madaniy makoniga integratsiyalashuviga ko‘maklashish, shuningdek, mamlakatimizning madaniy va ilmiy-texnik salohiyati hamda raqobatbardoshligi bilan bog‘liq jihatlarni namoyish etish;

madaniyat va san’at sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, shu bilan birga, madaniyat va san’at muassasalarini zarur adabiyotlar va davriy nashrlar bilan ta’minlash;

xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda, mamlakatimiz muzeylari va boshqa madaniy muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish tizimini takomillashtirishga ko‘maklashish;

xalqaro standartlarga muvofiq yangi madaniy muassasalar qurish uchun moliyaviy mablag‘ va ko‘mak berish;

madaniyat va san’at muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularni kapital hamda joriy ta’mirlesh;

xalqaro institutlar, xorijiy mamlakatlar hukumatlari, homiyilar va donorlar bilan hamkorlikda loyihalarni birgalikda moliyalashtirishni tashkil etishni ta’minlash;

jahondagi ilg‘or tajribalarni mamlakatimizda joriy etish bo‘yicha takliflar tayyorlash maqsadida madaniyat va san’at sohasini moliyalashtirish bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish;

aholiga pullik xizmatlar ko‘rsatish hajmini ko‘paytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

qonunchilikda belgilangan manbalardan tushayotgan mablag‘larni jamg‘arishni ta’minlash;

ajratilayotgan maqsadli mablag‘lardan to‘g‘ri, samarali va maqsadli foydalanish ustidan tizimli nazorat o‘rnatish;

Jamg‘arma va uning tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarni moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha tadbirlar uchun maqsadli mablag‘lar ajratish.

3. Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish manbalari etib quyidagilar belgilansin:

Vazirlar Mahkamasining hujjatlari (shu jumladan bayonnoma qarorlariga) asosan ajratiladigan respublika budjeti mablag‘lari;

Jamg‘armaning vaqtincha bo‘sh mablag‘larini moliya tashkilotlarida joylashtirishdan olingan daromadlar;

yuridik va jismoniy shaxslarning hamda xalqaro tashkilotlarning homiylik xayriyalari, metsenatlik ko‘magi, grantlari;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

4. Jamg‘arma ikki oy muddatda mazkur qaror talablaridan kelib chiqib Jamg‘arma faoliyatini tashkil qilish, shu jumladan uning mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

5. Jamg‘arma Toshkent shahri, Taras Shevchenko ko‘chasi, 1-uy manzilida joylashgan binoga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.A. Abduxakimov zimmasiga yuklansin.

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2021-yil 9-dekabr,  
PQ-36-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrda PQ-36-son qaroriga  
ILOVA

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-son Farmonida:

a) 6-bandning uchinchi xatboshisidagi “Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan” so‘zlari chiqarib tashlansin;

b) 8-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Bunda, xususiyl teatrda sahnalashtirilgan hamda ijro etilgan asarlar uchun mualliflik haqi to‘lash har yili O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar doirasida amalga oshirilishi belgilansin”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3325-son qarorida:

a) nomlanishida “Madaniyat vazirligi” so‘zlari “Vazirlar Mahkamasi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 1-banddagi “Madaniyat vazirligi” so‘zlari “Vazirlar Mahkamasi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 2 va 3-bandlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

g) 4-band quyidagi mazmundagi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“Jamg‘arma Adliya vazirligi, Madaniyat vazirligi, Moliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022-yil 1-fevralga qadar quyidagilarni nazarda tutuvchi qonun loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin:

Jamg‘armaga metsenatlik ko‘magi hisobidan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar tuzishga ruxsat berish;

Jamg‘arma tomonidan metsenatlik ko‘magi orqali amalga oshiriladigan loyihalarda chet ellik kontragentlarni soliqlar va to‘lovlardan ozod qilish”;

d) quyidagi mazmundagi 4<sup>1</sup>-band bilan to‘ldirilsin:

“4<sup>1</sup>. Jamg‘arma O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligida milliy valyutadagi shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga hamda milliy va xorijiy valyutada bank hisobvaraqlariga ega bo‘ladi”;

e) 7-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Manfaatdor vazirlik va idoralar bir oy muddatda ular tomonidan qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin”;

j) 1-ilova o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

z) 2-ilovaning 2 va 3-bandlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3920-son qarorining 1-bandidagi “Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi” so‘zlari “Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi” so‘zlari bilan almashtirilsin.